



## MAKTABDA TIL NORMALARINI O'TISH (FONETIK, GRAMMATIK, LISONIY NORMA)

**Safarova Madina**

*JDPU O'zbek tili va adabiyoti magistranti*

**Annotatsiya.** *Maktabda til normalarini o'tish (fonetik, grammatik, lisoniy norma) va til materialini to'g'ri tanlash, til normalarini ilmiy jihatdan nazariy o'rganish haqida so'z yuritiladi.*

**Kalit so'zlar:** *til normalari, tafakkur, nutq madaniyati.*

**АННОТАЦИЯ.** *В школе идет речь о переходе языковых норм (фонетической, грамматической, языковой нормы) и правильном подборе языкового материала, научно-теоретическом изучении языковых норм.*

**Ключевые слова:** *языковые нормы, мышление, культура речи.*

**Annotation.** *At school, we are talking about the transition of language norms (phonetic, grammatical, linguistic norms) and the correct selection of language material, scientific and theoretical study of language norms.*

**Keywords:** *language norms, thinking, culture of speech.*

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin til ta'limida yangi davr boshlandi. Ona tili ta'limi oldiga yangi qator vazifalarni qo'ydi. "O'zbek tili maktablarida ona tili konsepsiyasi" ishlab chiqildi, DTSning me'yorlari belgilandi. DTS ga muvofiq keladigan ona tili dasturlari, maktab darsliklari yaratildi.

Til – sof lisoniy qobiliyat va imkoniyat. Til – tafakkurni shakllantirishga, xotirada qat'iy sistemaga tizib saqlashga, axborotni uzatish va qabul qilishga imkoniyat beruvchi muhim (birlamchi) insoniy ijtimoiy - ruhiy kommunikatsiya vositasi. Tilning bosh vazifasi o'zaro ichki ziddiyat atash (nominativ) va ifodalash (ekspressiv) vazifalarining dialektik birligidan iborat [1].

O'qituvchi faoliyati o'quvchilarga beriladigan til materialini tanlash va ularni o'quvchilarga berish usullari bo'lsa, o'quvchi faoliyati egallangan bilimlarni tanish va notanish sharoitda qo'llashdir.

Til yordamida suhbatlashib, savol - javob qilamiz. Til yordamida fikrni ifodalab, tushuntiramiz. Ajdoddan ma'lumot olib, avlodga uzatamiz. Tilning eng muhim aloqa vositasi ekanligi shunda namoyon bo'ladi. Til faqat insonga va u mansub jamiyatga xos bo'lgan hodisa. Til bir kishi tomonidan emas, balki kishilik jamiyati tomonidan uzoq davr mobaynida yaratilgan. Til qismi til birligi hisoblanadi [2].

Til normasini ilmiy nuqtai nazardan o'rganish o'zbek tili nutq madaniyati muammolarini nazariy jihatdan asoslashning muhim shartlaridan biridir. Sababi, "til normasi nutq madaniyati nazariyasining markaziy tushunchasidir".





Adabiy tilning eng muhim xususiyati unda qat'iy belgilangan qoidalar me'yorlarning mavjudligi bilan belgilanadi. Normalar bular jamiyatda namuna sifatida qabul qilingan til birliklaridan foydalanishning nisbatan barqaror qoidalaridir.

Til juda murakkab hodisa, uning tuzilishini, izchil tizimini fahmlab olmay turib, sal bo'lsa-da, uning qonuniyatlarini, o'xshashliklarini o'zlashtirmay turib, uni yodda saqlab bo'lmaydi. Bola gaplashish, o'qish, eshitish bilan til materiallarini yig'adi, uning qonunlarini o'zlashtiradi. Natijada kishida tilga sezgirlik (til hodisalarini tushunish) xususiyati shakllanadi [3].

Ijtimoiy hodisa sifatida har qanday til – hayot hodisasi, harakat, diqqat bilan uning dinamik hayoti bilan bog'liqdir.

Til kishilik jamiyati shakllanishining zaminini tashkil etadi. Til xalq tafakkur tarzining tamalida turadigan, olam sinoatlarini anglash va kelajak avlodlarga anglatishga imkon beradigan, qavmning qalbi qa'ridagi qiyossiz qudratni sog'lom saqlaydigan bemisl bir vositadir.

Har bir xalqning milliy o'zligi, eng avvalo, uning tilida zuhur etadi. O'zbek tilining tabiati va mantig'ida xalqimizning sajiyasi, saviyasi, idrok zahirasi va tafakkur tarzi o'z tajassumini topgan. Aslida odamni odam qilgan, uni tamaddun bilan qovushtirgan, madaniyat arshiga olib chiqqan alomat omil ham, avvalo, til ekanligi e'tirof etilgan haqiqatlardandir [4].

Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, til insoniyatning muloqot vositasi. U asosan insonlarning nutqida hamda yozuvlarda yashaydi. Demak, ommaviy chiqishlarda albatta nutqning adabiy normalar darajasida bo'lishiga erishish maqsadga muvofiq.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sayfullayeva R va b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 2020. B. 20.
2. Mengliyev B va b. O'zbek tilidan universal qo'llanma. Toshkent. "Akademnashr" 2011. B. 3.
3. Qosimova K va b. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent "NOSIR" nashriyoti. 2009. B. 11.
4. Siddiqova Sh. O'zga gaplar tadqiqi monografiya. Toshkent "Innovatsiya –Ziyo" 2021. B. 6.

